


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Sodirjonov Muxriddin Maxammadaminovich

Namangan davlat universiteti
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent v.b. E-mail: sodirjonov@mail.ru

FARG'ONA VODIYSIDAGI ETNOSOTSIOLOGIK JARAYONLARIDA INSON KAPITALINING RIVOJI TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysi viloyatlarida o'zbek millatiga mansub aholi salmog'idan so'ng yuqori turuvchi tojik va qirg'iz millatiga mansub aholi istiqomat qiluvchi mahalla fuqarolar yig'inlarida «Inson kapitalining etnosotsial guruhlar turmush sifatini oshirishdagi imkoniyatlarini baholanishi» mavzusida sotsiologik tadqiqot olib borildi. Etnosotsial guruhlarining turmush sifatini oshirishning bir qator indekslarini tahlil qilish asosida mazkur tadqiqotning mohiyatini yanada chuqurroq o'rganishga harakat qildik. Shuningdek, etnosotsial guruhlar daromadining bugungi kun talabiga mosligi darajasi, salomatlik, dam olish va bo'sh vaqt masalalari, mahalladagi ijtimoiy muhit sotsial munosabatlar, etnosotsial guruhlarining jamiyatda bo'layotgan jarayonlardan qoniqish darajasi, ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy turmush tarzidagi ahamiyati, ijtimoiy himoyalanganlik holati va uning etnik identifikatsion xususiyatlari tadqiq etilib bir qator xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, etnik guruhlar, millatlararo totuvlik, etnologiya, antropologiya, millat, shahar aholisi, qishloq aholisi, talim, salomatlik, madaniyat, demografiya, farovonlik, daromad, bandlik, biznes, investitsiya, innovatsiya, migratsiya, yoshlar, ijtimoiy adolat, salohiyat, inson kapitali.

Содиржонов Мухриддин Махаммадаминович

Наманганский государственный университет
доктор философии (PhD) по социологии,
и.о. доцент, E-mail: sodirjonov@mail.ru

АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ЭТНОСОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье было проведено социологическое исследование на тему «Оценка потенциала человеческого капитала в повышении качества жизни этносоциальных групп» в сходах жителей Таджикистана и Кыргызстана, имеющих наибольшую долю узбекского населения в районах Ферганской долины. На основе анализа ряда показателей повышения качества жизни этносоциальных групп мы попытались более глубоко изучить сущность данного исследования. А также уровень соответствия доходов этносоциальных групп сегодняшним запросам, вопросы здоровья, отдыха и досуга, социальной среды и социальных

отношений по соседству, уровень удовлетворенности этносоциальных групп процессами, происходящими в обществе, значимость социальных сетей в социальном образе жизни, исследовано состояние социальной защищенности и ее этноидентификационные характеристики, разработан ряд выводов, предложений и рекомендаций.

Ключевые слова: Ферганская долина, этносы, межнациональное согласие, этнология, антропология, нация, городское население, сельское население, образование, здоровье, культура, демография, благосостояние, доход, занятость, бизнес, инвестиции, инновации, миграция, молодежь, социальная справедливость, мощность, человеческий капитал.

Sodirjanov Mukhriddin Makhammadaminovich

Namangan State University

Doctor of Philosophy in Sociology (PhD),

Acting associate professor.

E-mail: sodirjanov@mail.ru

ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF HUMAN CHARITAL IN THE ETHNO-SOCIOLOGY PROCESSES OF THE FERGANA VALLEY

ANNOTATION

In this article, a sociological study was conducted on the subject of "Evaluation of the potential of human capital in improving the quality of life of ethno-social groups" in the community meetings of the Tajik and Kyrgyz residents, who have the highest share of the Uzbek population in the regions of the Fergana Valley. Based on the analysis of a number of indices of improving the quality of life of ethno-social groups, we tried to study the nature of this research in more depth. Also, the level of compliance of ethnosocial groups' income with today's demands, health, recreation and free time issues, the social environment and social relations in the neighborhood, the level of satisfaction of ethnosocial groups with the processes taking place in society, the importance of social networks in the social lifestyle, the state of social protection and its ethnic identification characteristics are researched. and a number of conclusions, proposals and recommendations were developed.

Key words: Ferghana Valley, ethnic groups, interethnic harmony, ethnology, anthropology, nation, urban population, rural population, education, health, culture, demography, welfare, income, employment, business, investment, innovation, migration, youth, social justice, capacity, human capital.

Farg'ona vodiysi Respublika hududining 4,1 foizini tashkil etgan holda mamlakat aholisining 27,8 foizi aynan ushbu hududda istiqomat qiladi. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarini birlashtirgan mazkur hudud aholi soni, zichligi, mehnat resurslarining salmog'i hamda urbanizatsiya darajasining yuqoriligi bilan Respublikada oldingi o'rinda turadi. Farg'ona vodiysi tabiiy-geografik sharoiti, aholisining qadimdan o'troq turmush kechirganligi, tarixiy-madaniy maskanlari va tarixan turli davrlarda turli etnik guruhlar va etnoslar kelib joylashganligi bilan o'ziga xos jihatlari bilan farqlanib turadi.

Qolaversa, Farg'ona vodiysi viloyatlari markazi va katta shaharlarida rus millatiga mansub aholi istiqomat qilishi o'rganildi. Shuningdek, mazkur mintaqada koreys, tatar, lo'lia, qozoq, ozarbayjon, ukrain, turkman, belorus, qoraqolpoq, arman, yaxudiy, nemis, moldavan, guruzin va boshqa millat vakillari mavjud.

Mustaqillikni dastlabki yillarida shahar aholisiga nisbatan qishloq aholisi soni bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda aksincha, qishloq aholisi sonining kamayishi va o'z navbatida shahar aholisi sonining ortib borishi kuzatilmoqda. 2022 yilga kelib, Andijon viloyati umumiy ag'olisi soning 52,2 foizi shahar, 47,8 foizi qishloq, Namangan viloyati (64,8 foiz shaharda, 35,2 foiz qishloqda), Farg'ona viloyati (56,2 foiz shaharda, 43,8 foiz qishloq)larda istiqomat qiladi[2].

O'rganilgan mavzu doirasida Farg'ona vodiysi viloyatlarida o'zbek millatiga mansub aholi salmog'idan so'ng yuqori turuvchi tojik va qirhiz millatiga mansub aholi istiqomat qiluvchi mahalla

fuqarolar yig'inlarida «Inson kapitalining etnosotsial guruhlar turmush sifatini oshirishdagi imkoniyatlarini baholanishi» mavzusida sotsiologik tadqiqot olib borildi. Etnosotsial guruhlarining turmush sifatini oshirishning bir qator indekslarini tahlil qilish asosida mazkur tadqiqotning mohiyatini yanada chuqurroq o'rganishga harakat qildik (ishning ilova qismida dastur berilgan).

Hududlarda aholining farovonlik, salomatlik, bandlik, migratsiya, ta'lim kabi ko'rsatkichlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan majmuini o'rganish davr talabiga aylanib bormoqda. Ish o'rinlarining mavjudligi, aholining kundalik turmush tarzi, moliyaviy farovonligi, daromadlarning o'sib va kamayib borishi bo'yicha ijobiy ishlar natijadorligi bilan, mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta'minlash, ayniqsa, aholi zich yashaydigan Farg'ona vodiysining viloyatlar va shaharlar markazidan olis bo'lgan hududlarda shu kabi muammolar mavjud. Tadqiqot natijalarida vodiy viloyatlarining tog' oldi va chegara hududlarida istiqomat qiluvchi etnosotsial guruhlarining moliyaviy farovonligi, daromad hamda xarajatlarning bugungi kun talabiga moslik darajisida turli tafovutlar mavjudligini ko'rish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotga asoslangan jamiyatda xohlasak ham, xohlamasak ham moliyaviy farovonlik darajasi birinchi navbatdagi masala sifatida e'tirof etib kelinadi. Etuk, jamiyat va davlat uchun foydasi teganligan shaxsni tarbiyalash o'z-o'zidan juda katta miqdordagi investitsiyani talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, har bir oilaning moliyaviy farovonlik darajasi kelajak uchun qilingan investitsiya sifatida qaraladi. "Etnosotsial guruhlar daromadining bugungi kun talabiga mosligi darajasini qanday baholaysiz", degan savolga respondentlarning javoblari quyidagicha taqsimlandi: past daraja (63,6% tojik, 36,4% qirg'iz), o'rta daraja (42,6% tojik, 57,4% qirg'iz), yuqori daraja (90,7% tojik, 9,3% qirg'iz), va 14 nafar tojik respondentlar javob berishga qiynalaman, degan javobni qayd etish kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashish jarayonlarida ijtimoiy-madaniy omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va moliyaviy farovonlikni ta'minlashda zamonaviy kasb-hunar va ishbilarmonlik, tadbirkorlik va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bo'yicha aholining ayniqsa hududlardagi yoshlar faolligini oshirish bo'yicha tegishli tashkilotlardan zamonaviy, horijiy tajribadagi ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni talab qilmoqda.

Ma'lum bir mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan etnik guruhlar o'rtasida muayyan ishonch, ma'lum bir harakatchanlik zarur bo'lganda, yaqinlik va asosiysi qo'shni davlatlar bilan ahil qo'shnicilik munosabatlari ham muhim, bu erda asosiy rol ni etnik kelib chiqish emas, balki tarixan yaqin aloqalar, qarindosh-urug'chilik, etnomadaniy o'hshashlik, e'tiqodiy bir hillik, urf-odatlar ta'siri ostida shakllanadigan individual qobiliyatlar ancha keng ta'sirga ega.

Yangi O'zbekiston strategiyasining maqsadi yurtimizning baxtli va barkamol insonlar farovon yashaydigan, ijtimoiy adolat tamoyillari to'liq qaror topgan, dunyoning eng rivojlangan, barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoridan joy olishini ta'minlashdir.

O'zbekiston ko'p qirrali hamkorlikni, eng avvalo inson kapitali va demokratik yangilanishlar, biznes, investitsiya va innovatsiyalarni ilgari surish, "yashil" taraqqiyot, ekologiya, madaniy almashinuv va boshqa yo'nalishlarda yanada kengaytirishni qo'llab-quvvatlaydi [1, – B. 343]. Farovonlik esa o'z-o'zidan bunyod bo'lmaydi. Demak, milliy mafkuramizning asosiy printsiplaridan biri – xalq farovonligi g'oyasi o'z-o'zidan mafkuraviy mazmun, ma'no va ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, tadbirkorlik va kichik biznes uchun xalq farovonligi g'oyasi mafkuraviy omil bo'lishi tabiiy.

Farg'ona vodiysidagi Namangan, Rishton, Marg'ilon, Qo'qon, Chust, Asaka, Shahrison va boshqa shaharlar aholisi hunarmandchiligining o'ziga xos tomonlari o'rganildi. Zamonaviy jamiyatda viloyatlar aholisi o'rtasida zamonaviy ishbilarmonlik va tadbirkorlik ko'nikmalari yuqori darajada rivojlangan, deb baholash mumkin. Nafaqat ichki bozor balki eksport salohiyati yuqori bo'lgan tadbirkorlik va biznes faoliyati bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida, tarixan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan savdogarchilik bilan bog'liq, deb baholanadi. Har bir hudud o'ziga xos milliy kasb-hunar turlari va tadbirkorlik sohalarini yaratadi. Shuningdek, mahsulot va tovarlar ushbu hududning o'ziga xos "brend"iga aylanadi (Chust do'ppisi va pichog'i, Marg'ilon atlas, Oltiariq uzumi, Qo'qondagi kichik va o'rta bizens ob'ektlari hamda Asakadagi "UZAUTO


Motoros” AJ avtomobil zavodi, Namangandagi “Aisha home textile” MSHJ, “Chortoq» suvi, “Art soft” klasteri, Farg’onadagi to’qimachilik, sanat va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo’yicha vodiya asosiy drayverga aylangan.)[10, – B. 109-110]

Bozorga moslashish va tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida etnik omilning o’rnini bozor iqtisodiyoti uchun ko’p millatli, etnik guruhlarining tengligi, jamiyat va biznes uchun innovatsion imkoniyatlarning rivojlanishiga hissa qo’shadigan madaniy xilma-xillik egallaydi. Chunki har bir etnik va milliy madaniyatda boshqa madaniyatda bo’lmagan narsa bor va shu bilan ular bir-birini o’zaro boyitadi. Bu esa iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, yangi o’sish zaxiralarini o’zlashtirishga xizmat qilmoqda.

Farg’ona vodiysi viloyatlaridagi xorijlik investorlar, masalan, koreyslar, yaponlar, xitoylar, turklar va boshqalar biznesga olib keladigan tovarlarni bitta etnik guruhning harakatlari bilan taqqoslab bo’lmaydi. Agar bitta etnik guruh hukmronlik qilsa, u kuchli iqtisodiyotga ega bo’lmaydi. Etnik yoki etnik-madaniy xilma-xillik jamiyatning zaruriy murakkabligi va uning imkoniyatlarining keng doirasini ta’minlaydi. Agar odamlar o’sha maktablarni tugatgan, bir xil darsliklar asosida o’qigan bo’lsalar ham, baribir, milliy va o’zaro aloqadorlik, qaror qabul qilishdan kelib chiqadigan holatlar mavjud. Ushbu holat sezilmaydigan xarakterga ega bo’lishi mumkin, ammo u o’zaro boyishi ayni haqiqat. Etnik jihatdan murakkab tuzilishga ega bo’lgan har qanday millat monoetnik millatga qaraganda samaraliroq va evolyutsiondir[10, – B.111]. Ehtimol, bu borada faqat yaponiyaliklar istisno, lekin ushbu vaziyat muhojirlarni jalb qilish foydasiga o’zgarmoqda. Ishonchimiz komilki, madaniy xilma-xillik rivojlanish uchun qo’shimcha manba hisoblanadi.

Etnosotsial guruhlarining turli o’ziga xos madaniyati insonga qo’shimcha manba beradi va rivojlanish uchun juda muhim bo’lgan ko’plab qatlamlarni o’z ichiga oladi. Masalan, ingliz, koreys, yapon va xitoy tillarini o’rganish orqali inson kapitalidagi madaniy hamda intellektual salohiyat boyib boradi. Bu esa insonning sa’yi-harakatlarini safarbar qilishga yordam beradi. Bu nafaqat ommaviy madaniy me’yorlarni puxta egallash bilan, shu bilan birga salomatlik, ta’lim va farovon turmush tarziga bo’lgan qarashlarni ham o’zgartirishga olib kelmoqda. Bugungi kunda madaniy o’ziga xoslik boshqa xalqlar madaniyati bilan ham universallashti.

Inson kapitali uchun qilinadigan investitsiyalar ko’lami jamiyatning taraqqiyot darajasi, buguni va ertasini belgilab beradigan asosiy ko’rsatkichlardan sanaladi. Inson kapitalini eng samarali rivojlantiruvchi investitsiyalar tarkibida salomatlik va ta’lim tizimi uchun kiritiladigan investitsiyalar muhim ahamiyatga ega. Respondentlarga etnosotsial guruhlarining o’z salomatlik holatiga baho berish darajasini aniqlashga qaratilgan so’rov natijalari quyidagicha izohlandi: jami 600 nafar(50,1%) tojik va 598 nafar (49,1%) qirg’iz millatiga mansublar tashkil etib, ulardan past (62,0% tojik, 38,0% qirg’iz), o’rta (67,1% tojik, 32,9% qirg’iz), yuqori (32,2% tojik, 67,8% qirg’iz) va javob berishga qiynalaman (50% tojik, 50% qirg’iz) degan jaoblar belgilangan.



1.1-rasm. Etnosotsialguruhlarining o’z salomatlik holatiga baho berish darajasi

Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar natijasida aholining sifatli tibbiy-sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati oshdi. Eng asosiysi, mamlakatdagi o'rtacha umr ko'rish darajasi 1990 yildagi 67,2 yoshdan 2020 yilga kelib 74,6 yoshga etdi, onalar o'limi bir yarim marta, bolalar o'limi esa to'rt marta kamaydi[1, – B. 57].

Hududlar kesimida qayd etilgan tug'ilishlar soni va o'sish sur'ati 2022 yil yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyati 21965 (22,8 foiz), Andijon viloyatida 18720 (23,3 foiz), Namangan viloyatida 17542 (24,2 foiz) ni tashkil etadi. 2020-2021 o'lim soni biroz ko'paydi. Farg'ona viloyatida 4330 (4,5 foiz), Andijon viloyatida 3540 (4,4 foiz) va Namangan viloyatida 3020 (4,2 foiz)ni tashkil etadi. O'limlar asosan, qon aylanish tizimi, turli xil o'simtalar, baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlar, ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari, yuqumli va boshqa kasalliklardan vafot etish holati kuzatiladi[11].

Farg'ona vodiysi aholisining umr ko'rish davomiyligi uzayishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

- ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda o'zgarishlarning turmush sifati, inson qadri va manfaatlariga yo'naltirilganligi;

- aholi o'rtasida ilm-fan, ayniqsa, oliy talim va zamonaviy kasblarni o'zlashtirishga bo'lgan ijobiy munosabatning shakllanganligi;

- aholini tibbiy madaniyati va salomatlik darajasining ortib borishi;

Sog'liqni saqlash inson kapitalining tarkibiy qismi sifatida nazariy va amaliy tomondan ham katta qiziqish uyg'otdi. Agar an'anaviy ravishda inson kapitali fuqaroning ta'lim va malakasiga bog'liq bo'lsa, yaqinda u sog'liqni saqlash omillarini qamrab oladigan kengroq tushunchaga ega bo'ladi. Inson kapitali tushunchasi bugungi kunga kelib faqatgina iqtisodiyot yoki ishlab chiqarishda emas, balki mamlakatdagi har bir fuqaroning individual xususiyatlari – salomatlik, ta'lim, qobiliyati va iste'dodlari, orttirgan malaka hamda tajribalari, ijtimoiy, psixologik, dunyoqarash va odamlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, uning tarkibiy tuzilishi nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham anglashdan iborat. Sog'lom insonlarda kasallik tufayli ish joyida bo'lmaslik holatlari kam uchraydi va natijada ish unumdorligi oshib, ishlab chiqarish reytingi ko'tariladi. Shu nuqtai nazardan, salomatlik darajasi ta'lim bilan bevosita bog'langan inson kapitalining ajralmas qismi deb baholanadi.

Inson kapitali rivojidadagi muhim omilni demografik tarkibiy qism bilan bog'liq ijtimoiy muhit shaxs va jamoalarning hududiy elementlarini avlodan-avlodga o'tadigan vorisiylik tizimi belgilaydi. Demografik asosga qurilgan kapitalning asosiy tuzilmasi hisoblangan sog'liqni saqlash yoki salomatlik komponenti uzoq yillar davomida sifatli tibbiyot yordamida jismoniy va aqliy mehnat qobiliyatini saqlab qolish uchun ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqada shakllangan qadriyatlar tizimiga aylanib bordi. Ayniqsa, 2020 yilning mart oyidan boshlab butun dunyo bo'yicha COVID–19 tufayli e'lon qilingan pandemiya davrida salomatlik butun insoniyat uchun birinchi raqamli qadriyat sifatida inson kapitalini tashkil etdi.


Aholi salomatligi jarayonining ortida emas, oldiga o'tib ishlash tizimi, ya'ni tibbiy profilaktika yondashuvi yo'lga qo'yildi. Tibbiyot muassasalaridagi tez yordam avtomashinalari tuliq yangilandi. Xorijda faoliyat yuritib kelgan etuk malakaga ega yuzlab vatandoshlarimiz O'zbekistonga qaytarilib, ularga mas'ul sohalar rivojini ta'minlashga hissa qo'shish vazifalari yuklatildi. Mamlakatimizda inson salomatligini xalqaro standartlarga mos ravishda tibbiy sug'urtalashga o'tish ishlari keng ko'lamda boshlab yuborildi. Tibbiyot sohalarida xalqimiz kutgan asosiy islohotlar, xususan, yurak-qon operatsiyalari, jigar, buyrak sohasida murakkab jarrohlik ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish samarali yo'lga qo'yildi.

Inson kapitalini uzliksiz rivojlantirishga sarflangan vaqt va xarajatlar uzoq muddat talab qilsada pirovardida ijobiy natijadorligi yuqori hissoblanadi. Shuningdek, inson kapitali rivojlanishi shu kapital egasining o'ziga ko'rsatadigan e'tiborligi va g'amxo'rliigi muhim ahamiyat kasb etadi[10, – B. 113]. Ta'lim, salomatlik va boshqa omillar bilan birgalikda inson kapitali rivojlanishida bo'sh vaqtdan unumli foydalanish hamda madaniy hordiq olish darajasi shahsning ijtimoiy turmush tarzi va sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

O'z navbatida, shahar aholisi bilan qishloq va chekka hududlarda istiqomat qiluvchi aholi o'rtasida o'ziga qarash hamda madaniy hordiqni tashkil etish va o'tkazishda tafovutlar sezilari darajadiligini ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risidagi"[3] Farmoni respondentlar tomonidan alohida e'tirof etildi. Ushbu kunlarda Respublika va mintaqa hudlaridagi ziyoratgohlar, tarixiy obe'ktlar va turli manzarali sayohat maskanlarida olaviy, yaqinlar bilan vaqt o'tkazishlari bilan birgalikda ichki turizmni rivojlanishiga hizmat qilishmoqda.

Inson mo'tadil va o'z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug'ullansa va tartibga rioya qilsa, u davoga ham, dorilarga ham muhtoj bo'lmaydi, deya tasdiqlagan. Mashqlarni to'xtatar ekan, u so'nadi. Jismoniy mashqlar mushaklarni, bo'g'imlarni, asabni mustahkam qiladi deb ta'kidlagan.

Madaniy hordiq ham insonning turmush tarzida muhim omil sanaladi. Yo'qotilgan ruhiy, jismoniy va ma'naviy kapital hamda salohiyatni tiklashda dam olish muhim omillardan biridir. Respondentlardan o'ziga qarash va dam olishga bag'ishlangan vaqt mavjudligi darajasi baholash uchun berilgan savolga javoblar quyidagicha taqsimlandi:



1.2-расм. Etnosotsial guruhlarining o'ziga qarashga va dam olishga bag'ishlangan vaqt mavjudligi darajasi

Yaqin o'tmishda odamlar asosan muayyan vaqt doirasida ishlash hamda ish vaqti tezroq o'tishidan manfaatdor kayfiyatda yashar edi. Sobiq sho'rolar davrida hamma ishga faqat jarayoniy, ya'ni muayyan vaqt kesimida boshlanib tugaydigan faoliyat sifatida yondashib, o'z ish faoliyatlari natijasidan manfaat olishni o'ylamas, rejalashtira olmas va hatto bunday manfaatni umid ham qila olmas edi.

Yosh respondentlar orasida kundalik maishiy turmushga doir ishlarda namoyon bo'luvchi prokrastinatsion holatlar kuzatildi. Bunda ayrim odamlardagi kundalik ro'zg'or yuritish bilan bog'liq yumushlarni vaqtida bajarmasdan ortga tashlab yurish holatining turmush tarziga aylanib qolishi nazarda tutiladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda soatlab vaqt o'tkazish natijasida loqydlik, tanbanlik kabi salbiy illatlarga odatlanish, uy yumushlariga doir maishiy masalalarni vaqtida hal etilmasdan o'z holiga tashlab qo'yiladi. "Hammasi ertaga bajariladi", degan yondashuv odatiy holatga aylanadi. Shahar yoki viloyat markazlaridagi yoshlar bilan chekka hududlar va qishloqlarda istiqomat qiluvchi yosh respondentlar orasida bo'sh vaqt taqsimoti hamda madaniy hordiq darajasi farq qilishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, yoshi katta respondentalar tomonidan dam olish yoki madaniy hordiqni tashkil etishdagi shaxsiy fikrlarida asosan, nafaqa davriga rejalashtirganmiz, degan javoblar bilan cheklandi. Dam olish va bo'sh vaqtni tashkil etishda choyxona hamda guzarlar asosiy maskan sifatida, nafaqa yoshiga etganida esa diniy ziyoratlarga borishni rejalashtirganliklarini ta'kidladilar. Bu esa etnomadaniy va etnoijtimoiy muhit bilan uzviylik tomonlari mavjud.

Hududlar darajasidagi indeksni hisoblash tartibini ishlab chiqqan mahalliy tadqiqotchilar uning quyidagi tartib-mezonlarini belgilab beradilar:

1) Har bir indeks bo'yicha tanlangan hududlar asosiy ko'rsatkichlarga ko'ra tartibga solinadi va mavjud ko'rsatkichlar respublikaning o'rtacha ko'rsatkichlari bilan solishtirilib chiqiladi (respublikaning o'rtacha indeksi 1,00 ga teng);

2) Indeksni hisoblash uchun ko'rsatkichlar darajasi respublikaning o'rtacha ko'rsatkichlari bilan bog'liq va har bir indikator bo'yicha koeffitsientlar har bir hudud uchun alohida hisoblab chiqiladi. Bundan tashqari, har bir indikator uchun koeffitsientlar jamlanib, indikatorlar soniga bo'linadi hamda har bir hudud uchun o'rtacha qiymat olinadi. Olingan o'rtacha ballga ko'ra, har bir hudud bosqichmi-bosqich (1 dan 14 gacha) – ya'ni, eng yuqori ko'rsatkich – 1, eng quyi ko'rsatkich esa – 14 deb tan olinadi. Agar indikator salbiy ko'rsatkichga ega bo'lsa, (misol uchun o'lim ko'rsatkichi), reytingning 14 – eng yuqori koeffitsienti qo'yiladi[4, –B. 8].

Yoshlarning bandligini ta'minlash yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sanaladi. Mamlakatda 30 yoshgacha bo'lgan aholi soni 17 mln.dan ortiq bo'lib, ushbu holat muammoning echimiga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda.

Demografik salohiyatini sifat jihatdan baholash ham o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining demografik salohiyatida yuzaga kelgan jins- yosh tarkibi va fertillik, tuzilgan nikohlar dinamikasi va boshq alohida ko'rsatkichlar asosida aholi sonining o'sishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichi tushiniladi.

So'nggi yillarda asosan yosh oilalarda oilaviy ajrimlar turli xil sabablar natijasida sodir bo'lmoqda. Mazkur illatning asosiy sabablari erta nikoh, farzandsizlik, irsiy kasalliklar yoki qarindosh-urug'lar o'rtasidagi oilalar ajrimlar bilan bog'liq. Bugungi kunga kelib, yosh oilalarda ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va psixologik (stress, depressiya, ruhiy zo'riqish va b.) omillari va katta avlod vakillari oilaga yaqin qarindoshlarning ortiqcha aralashuvi, manfaatlar to'qnashuvi, turli ijtimoiy kelishmovchiliklar bilanga bog'liq bo'lib qolmoqda. O'tkazilgan tadqiqotlarda yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi hamda oilaviy munosabatlarga engil qarashlari natijasida ham vujudga kelayotganligi a'yon bo'ldi[10, – B.116]. Ma'lumki, oilaviy ajrimlarning oldini olishda oila a'zolarining bilim va dunyoqarash darajasi, madaniyat saviyasi, moliyaviy savodxonligi, zamonaviy hamda an'anaviy xususiyatlarga asoslangan mentalitet, urf-odat va qadriyatlarga bo'lgan munosabatlar asosiysi ta'lim darajasi muhim sanaladi.

“Axborot asri”da, informatizm tuzumida internet va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumot hamda voqeliklarni to'g'ri baholay olmaslik, nazorat qilish va boshqarish ko'nikmasida bilimlarning etishmasligi tufayli jirradi ahvolga tushish, jazavali to'polonlar soni oshib bormoqda. Hushyor tortishga chorlaydigan jihatlardan yana biri tadqiqotlarda ishtirok etgan Farg'ona va Andijon viloyatlaridagi respondentlarning 8–10 foizi turmush qurish uchun 17 va undan kichik yoshni afzal, deb biladilar[5,– B. 46–47.].

So'nggi yillarda mamlakatda hududiy kesimlarda oilalar ijtimoiy holatining monitoringi bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur muammo bo'yicha viloyat, tuman, shaharlar kesimida shuningdek har bir mahalla fuqarolar yig'inida xotin-qizlar masalalari bo'yicha faoliyat olib borayotgan faollar tomonidan ijtimoiy-ma'naviy ishlar tashkil etilgan. Oilalarning ijtimoiy-demografik holatini kompleks baholash maqsadida salomatlik, ta'lim, bandlik va farovonlik indekslari asosida inson kapitali omili aniqlana boshlandi. Ammo, so'nggi yillarda turmush qurganiga 2–3 yil bo'lgan yosh oilalar o'rtasida ajrimlar ko'payib borayotganligi kuzatilmoqda. Bunda fe'l-atvorning nomutanosibligi, ayniqsa, ota-onalarning noo'rin ta'siri asosiy sabablardan biri sifatida qolmoqda.

So'nggi yillarda urbanizatsiyaning demografik jarayonlarga ta'siri yuqori bo'lmoqda. Katta shaharlarda ijtimoiy muhitning hududiy farqlanishi birinchi navbatda, iqtisodiy holat va ishlab chiqarish farqidan kelib chiqqan holda namoyon bo'lmoqda. Shaharlashish jarayonlari rivojlanib borayotganligi sabab, shahar aholisining tug'ilish darajasi qishloq joylariga nisbatan kamayishi tabiiy holat. Istiqbolda qishloq joylarida ham tug'ilishning pasayishi kuzatilmoqda. Ba'zi shaharlarda tug'ilish darajasi yuqoriroq bo'lib, mazkur jarayon ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va diniy omillarga bog'liqligi bilan ham izohlanadi. Ayniqsa, endi qishloq joylaridan ko'chib kelayotgan shahar aholisining tug'ilish darajasi avvaldan shaharlarda yashovchilarnikidan ancha yuqori bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi.

Etnosotsial jarayonlarda demografik salohiyat aholining sof miqdor ko'rsatkichlari (tug'ilganlar va o'lganlar soni, tuzilgan nikohlar va ajralishlar soni, kasallanish darajasi va h.k.)ni hisoblash (afsuski, demografik vaziyatni baholash aksariyat holatlarda aynan shundan iborat), boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi bizda ham demografik rivojlanishning sifat jihatini e'tibordan chetda qoldiradi. Shuning uchun demografik salohiyatni miqdor jihatdan baholash u yoki bu hudud aholisining umumiy sonini baholash, uning gender va yosh tarkibi bilan tugamasligi kerak. Inson kapitalini rivojlanishida aholining hayotiy salohiyatini baholash bilan to'ldirilishi lozim. Aynan ana shunday baholash demografik rivojlanish jarayonini boshqarishning samaradorligi va sifati haqida gapirish imkonini beradi. Bunda aynan boshqarish samaradorligi, oldindan qo'yilgan maqsadlarga har qanday davlat siyosatini baholashning asosi va mezoni hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz jarayonida hududiy migratsiya jarayonlarining tahlili o'ziga xos ravishda o'rganildi. Xususan, "1991 yilda vodiyning jami 155185 nafar aholisi migratsiya ishtirokchisi bo'lib, ulardan 75126 kishisi ko'chib ketganlar, 80059 kishi esa ko'chib kelgan. Mintaqa aholisi ushbu davrda 4933 kishiga ko'paydi. Keyingi yillarda migratsiya jarayonlari Respublikada bo'lgani kabi vodiya ham kamayib bordi. 2016 yil oxiriga kelib vodiydagi migratsiya jarayonida ishtirok etganlar soni 49795 kishiga tushib qolgan holda, 1991 yilga nisbatan 105390 kishiga kamaygan"[6, – B. 124]. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasida ishtirok etayotgan aholi 2006 yilda – 105,1 ming, 2007 yilning birinchi yarmida – 670,7 ming, 2008 yilda – 1 mln.ga yaqin, 2018 yilda – ikki million olti yuz o'n bir ming kishini tashkil qilgan[7, – C. 13]. Ammo, ushbu jihatlar bandlik muammosining hal etilishiga u darajada ham sezilarli ta'sir o'tkazmagan.

Yoshlar migratsiyasining ta'lim olish, kasbiy mahoratni oshirish, zamonaviy mutaxassisliklarni egallash, malaka va tajriba ortirish, tayyorlash va qayta tayyorlash o'quv kurslarida uzoq va qisqa muddatli shaharlararo, mintaqalararo va rivojlangan xorijiy davlatlarda inson kapitaliga investitsiyalar kiritishlari kabi ijobiy motivlarini kuzatish mumkin.

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, Farg'ona vodiysining hududiy joylashuvi, aholining salomatligi, umr ko'rish davomiyligi, demografik holati, katta va kichik shaharlaridagi urbanizatsiya hamda migratsiya jarayonlari, aholi bandligi, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhiti, aholining ijtimoiy-madaniy qiyofasi hamda yaratilgan shart-sharoitlar ushbu hududda yashovchi aholining inson kapitalini aniqlashtirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Farg'ona vodiysi hududida yashayotgan har bir millatning o'ziga hos ma'naviy-moddiy madaniyati, an'analari, urf-odatlar va ijtimoiy turmush tarzini o'rganish muhim ahamiyat kasb etib, tarix, etnologiya, etnopsixologiya va etnosotsiologiyaning dolzarb masalalaridan hissoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021. – 464 б.
2. <http://www.andstat.uz/uz/>, <https://www.farstat.uz/uz/>, **Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.**
3. <https://lex.uz/docs/5784917>
4. Ташмухамедова Д., Каримова Д., Закиров Д. Худудларни комплекс баҳолашнинг ижтимоий-демографик жиҳатлари. Илмий-услубий қўлланма. – Тошкент: Yurist-media markazi, 2020. – Б. 8.
5. Ташмухамедова Д., Каримова Д. Ўзбекистонда ёш оила (Ижтимоий тадқиқотлар натижалари асосида). Тошкент, 2019. – Б. 46–47.
6. Тўхтабоева Д. Э. Фарғона водийси вилоятларидаги кичик ва ўрта шаҳарларнинг ривожланиши: ўзгаришлар ва муаммолар.... – Б. 124.
7. Зайончковская Ж. А. Миграция населения из стран Центральной Азии / Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Социальные, правовые и гендерные аспекты. – Ташкент, 2008. – С. 13.
8. Келтирилган маълумотлар Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг 2022 йилнинг январь-март ойларидаги маълумотлари асосида диссертант томонидан ишлаб чиқилди.

9. Содирджонов М. М. Изучение проблем человеческого капитала в этносоциологических процессах //В поисках социальной истины. – 2021. – С. 59-69.
10. Содирджонов М. М. Инсон капитали ривожланиш жараёнларининг этносоциологик хусусиятлари (Фарғона водийси мисолида). Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2022.
11. Содирджонов М. Инсон капитали ривожини шахсининг онги, билими, ахлоқ-одоби, дунёкарашига боғлиқ." //Янги Ўзбекистон" газетаси. – 2022. – Т. 10.